

## O'ZBEK VA INGLIZ DISKURSIDA NUTQIY ETIKETNING IFODALOVCHI MUROJAAT SHAKLLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

**Xusainova Zebo Ikramovna**

Urganch davlat universiteti, Xorazm, O'zbekiston

E-mail: [zeboxusainova@gmail.com](mailto:zeboxusainova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur tezisdagi o'zbek va ingliz muloqotiga xos murojaat shakllari, ularning pragmatik jihatlari, ijtimoiy – madaniy normalarga xos amal qilinishi haqida so'z boradi. Mazkur madaniyat vakillari murojaat shakllaridan rasmiy, norasmiy muloqot uslubiga xos turlarini qo'llashida farqli va o'xshash taraflari bo'lib, bu o'z navbatida muloqotning samarali, ijobiy o'tishini ta'minlaydi. Shuningdek, madaniyatlararo muloqot doiralarda yuzaga keladigan murojaat shakllari bilan bog'liq muammolarni chetlab o'tishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Nutqiy etiket, murojaat shakllari, rasmiy, norasmiy, referent ma'no

**Abstract.** The thesis describes Uzbek and English address forms and their pragmatic characteristics, and examines the implementation of social and cultural norms. In both languages, there are differences and similarities in the use of address forms by representatives in formal and informal communication, which, in turn, help organise the conversation effectively. Thus, it eases some concerns about address forms in interpersonal communication.

**Keywords:** speech etiquette, address forms, formal and informal communication, referent meaning

**Аннотация.** В статье описываются формы обращения в узбекском и английском языках, их прагматические характеристики, а также рассматривается применение социальных и культурных норм. В обоих языках наблюдаются различия и сходства в использовании форм обращения представителями в формальном и неформальном общении, что, в свою очередь, способствует эффективной организации разговора. Таким образом, снимаются некоторые опасения по поводу форм обращения в межличностном общении.

**Ключевые слова:** речевой этикет, формы обращения, формальное и неформальное общение, значение референтов.

Nutqiy etiket jamiyatning madaniyati, odob axloqini kommunikatsiyada aks ettiradigan, muloqotdagi vaziyatning mazmunini anglashga, shaxsning muloqotini shakllantirishga yordam beradigan muhim vositadir. Odob-axloq qoidalarini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy etiket, boshqa lingvomadaniyat vakillari bilan muloqotda o'z aksini topadi va ma'lum me'yorlar aynan ma'lum madaniyat uchun xos ekanligini ko'rsatadi. Muloqotda kommunikantlar milliy ong, mentalitet, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy qoidalar, milliy estetik did kabi har bir madaniyatga xos xususiyatlarni aynan kommunikatsiya jarayonida qo'llanilayotgan verbal – noverbal vositalar orqali ochib berishadi.

Nutqiy etiketning namoyon bo'lishi bir necha nutqiy aktlar orqali yuzga keladi. Aytaylik, salomlashish, murojaat qilish, xayrlashish, ta'ziya bildirish, kechirim so'rash, iltifot qilish, minnatdorchilik bildirish kabi nutqiy aktlar ifodalanishida kommunikantlardan nutqiy etiket tamoyillariga tayangan holda lisoniy birliklarning mosini tanlash, vaziyatga mos tarzda hukm qilish ta'lab qilinadi.

Murojaat qilish nutqiy akti ham ma'lum ijtimoiy-madaniy normalarga tayanishni taqozo qiladi. Kommunikatsiyada murojaat shakllaridan mosini qo'llashda, ishtirokchilardan aynan vaziyatga, jamoaga, sharoitga, muhitga mos murojaat shakllarini qo'llash ta'lab qilinadi. Chunki, bu bilan har bir lingvomadaniyat vakili o'z madaniyatiga xos tarbiyani balki, shaxsiy axloqiy tarbiyasini ham namoyon qiladi. Murojaat ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy tarbiyaga ahamiyat qaratadigan munosabatlardan bo'lib, uni rasmiy va norasmiy turlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ingliz va o'zbek madaniyatiga xos murojaat qilish qoidalarini tadqiq qilish, ularning farqli va o'xshash taraflarini o'rganish, mazkur madaniyatlarning ijtimoiy, axloqiy, estetik qarashlarni ochishda qo'l keladi. Bu madaniyatga xos xususiyatlarni ochishda muloqot shaklini rasmiy va norasmiy uslubda o'rganish, nutqiy etiketga xos me'yorlarning ochib berishda qo'l keladi.

Rasmiy doiralarda bilamizki, asosan qat'iy tartib va belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi. Rasmiy murojaatlar yuqori tashkilot vakillariga, hukumat rahbarlariga, mehnat jamoalarida rahbarlarga, ishlab chiqarishdagi korxonada yetakchilariga, ta'lim muassasalaridagi ma'ruzachi, professor, huquq targ'ibot organlaridagi katta zobitlarga, miting va rasmiy tadbirlarda jinsga qarab, hammaga murojaat qilinadi. Bu asosan rasmiy hujjatlar, qarorlar, qonunlar, e'lonlar bilan bog'liq hujjatlarda amal qilib, murojaat qilinayotgan shaxsning ijtimoiy maqomi, yoki mavqei, inobatga olinadi. Rasmiy munosabatlarda asosan muloqot sharoitida katta yoshli shaxslarga, jamiyatda yuqori maqom yoki mansab egalariga, hurmat va ehtiromni ifodalashda qo'llaniladigan murojaat shakllari «*Hurmatli*», «*Muhtaram*», «*Mo'tabar*», «*Aziz*», «*E'tiborli*» («*Muhtaram vazir janoblari*» «*Muhtarama elchi janobi oliylari*») «*xonimlar va janoblar*» shuningdek, kasbiy faoliyat va tashkilot rahbarlari lavozimdagilar uchun «*Xo'jayin*» «*Janobi direktor*» «*O'rtoq*» «*Doktor*» shaxsning ism-sharifi bilan murojaat qilish (masalan, *Aleksandr Sergeevich, Dono Mirzaevna*) vertikal masofa doirasidagi odob-axloq normalariga tayanish o'zbek madaniyati uchun xosdir. O'zbek tilida «*janob*» va «*xonim*» kabi murojaat birliklari asosan chet ellik mehmonlarga (*Sara xonim*), yuqori mansab egalariga familiyasi bilan, yoki mega yulduz shaxslarga ismi bilan (*Tamara xonim*) qo'llanilib, yuqori darajadagi hurmat ifodasini beradi. Shu bilan birga, kundalik muloqotda bunday birliklar deyarli ishlatilmaydi, agar qo'llanilsa ham istehzo bilan aytilishi mumkin. O'zbek lingvomadaniyati muloqotida hurmat, yosh ierarxiyasi ahamiyatli bo'lib, murojaat qilishda buni inobatga olish, nutqiy etiket me'yorlariga amal qilish hisoblanadi. (*aka, opa, xola, amaki, domla va hokazo.*)

Inglizlarda esa muloqotda tenglik, muloyimlik, salbiy strategiyali xushmuomilalik amal qiladi. O'zbek madaniyati muloqotida murojaat shakllari inglizlarnikiga qaraganda biroz rang-barang shuningdek, ijtimoiy munosabatlar, masofaga qarab farqlanadi va tilning madaniy jihatini ochib beradi.

Ingliz madaniyati muloqotida rasmiy doiralarda *Mr, Mrs, Miss*, yoki familiya bilan murojaat shakllari faol (*Mr. Rodger, Miss Ellie, Mrs Johnson*) Shuningdek, bu assimetrik murojaat rasmiy doiralarda lavozim bilan aytilishi ham mumkin. (*Mr. President*) Etimologik jihatdan *master, masteress* ma'nolariga ega *Mr, Mrs* murojaat shakllari hozirda ism bilan aytilganda, masofa va hurmat nazarda tutiladi. Hurmatni ifodalaydigan murojaat formalari; *Sir, Madam, Ma'am* (Shimoliy Amerikada), kasbiy faoliyat bilan bog'liq murojaatlar; *Professor, Father, Doctor, Ambassador, Captain, Congresswoman, Senator, Sergeant* yoki familiyasi bilan; *Captain Brown*, bundan tashqari kommunikatsiya jarayonida katta guruhlardan tashkil topgan rasmiy doiralarda

umumiy *Ladies and Gentlemen* kabi markerlar nutqiy etiket elementlaridan bo'lib, ingliz muloqotida an'anaviy kirish funksiyasini bajaruvchi birliklardir.

*Madam, Ma'am* murojaat shakllari ayrim hollarda salbiy yoki konnotiv ma'nosi o'zgarishi mumkin. *Madam* murojaat shaklidan tashqari, nazarda tutilgan (referent) ma'noga qarab, salbiy ma'no ham kasb etadi. [3, 256] *Ma'am* esa Amerikaning janubiy shtatlarida faol bo'lib, kommunikativ pragmatik jihatdan turli ijtimoiy kontekstlarga mos o'zgarishi mumkin. Bunda, u *You are welcome, I beg your pardon? Pardon?* substitutsiya shaklida ishlatiladi. [4, 743]

*Sir, Madam, Miss* murojaat shakllari hozirda Britaniya ingliz tilida ancha faolligi kamaygan murojaat shakllari bo'lib, yoshi katta, istefodagi kishilarga ayrim hollarda anonim murojaatlarda qo'llanilishi mumkin. [5, 543]

So'zlashuv uslubi yoki norasmiy uslub boshqa rasmiy, publisistik, ilmiy uslublarga qarshi turadi. Aynan bu uslubda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida tayyorlanmagan, oldindan rejalashtirilmagan aloqalar vujudga kelib, nutqiy munosabatda bo'layotgan kishilar o'rtasida rasmiy muomila bo'lmasligi so'zlashuv uslubini boshqa vazifaviy uslublardan keskin chegaralaydi. [1, 77]

Norasmiy murojaatlar asosan kundalik hayotda qo'llaniladigan murojaatlar, yaqin insonlarga, tanishlarga, intim munosabatdagilarga va nomsiz murojaat shakllari bilan farqlanadi. O'zbek madaniyatiga xos norasmiy muloqotda yaqin kishilarga murojaat shakllari ancha keng. «*Amaki*», «*dada*», «*oyijon*», «*xola*», «*aka*», «*singlim*», «*pochcha*», «*o'g'lim*», «*qizim*», «*bobo*», «*buvijon*», «*mulla aka*», «*to'ga*», «*kelin*», «*kelinoyi*», «*kelinposhsha*» «*kuyov*» kabi murojaat birliklari nafaqat qarindoshlik munosabatlarida, balki begona va notanish shaxslarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Bu jihatdan, ijtimoiy ma'no nazarda tutilgani uchun *referent ma'no shakli* desak bo'ladi. Chunki, *aka, opa, singlim* va hokazolar begonalarga qo'llanilganda o'z qarindoshi yoki yaqin munosabatdagi shaxs ko'zda tutilmaydi. Bundan tashqari ijtimoiy-diniy ta'sir natijasida rivojlangan bu murojaat shakllari Yaqin Sharq ayniqsa, arab madaniyatiga o'xshashligini kuzatishlarimizda aniqladik. Chunki, bu xalqlarda ham notanish kishilarga qarindoshlik murojaat shakllari qo'llaniladi masalan, *amū / 'amy*, *ḥalah / ḥālaty* (*amakim / amakim, xolam / xolam*) [6, 106] yoshlar kattalarga murojaati qilganda, yoki umuman haj qilmagan kishilarga ham haj, *haja* (*haj / haj*).

Amerikaliklar jamoat joylarida, xizmat ko'rsatish shahobchalaridagi ayollarga mehribonlikni yoki samimiylilikni ifoda qilishda, *love, dear, honey, sweetheart* deb chaqirish ham ayrim shtatlarda amal qiladi. Britaniyaliklarda esa tanish bo'lgan muloqot ishtirokchilariga ularning birinchi ismi bilan murojaat qilishdan tashqari, do'stona birdamlik ifodasini beruvchi *mate, buddy, pal* kichik guruhlariga tanishtiruv sifatida esa *guys* (ma'ruzachi ularni ismini bilmaganda), *folks, man, bro, dude* kabi murojaat shakllari foydalanish erkaklar muloqotidagi odatiy holat.

Murojaat qilish shakllari bu millat vakillari muloqotida biroz o'zbek muloqotidagi murojaat shakllari bilan o'xshash va farqli jihatlarini kuzatdik. Aytaylik, *yigitlar, jo'ra, og'ayni, do'stim, jiggar*, kabi murojaat shakllari erkaklar muloqotiga xos hisoblanib, ingliz muloqotida ham shunga o'xshash *guys, buddy, pal, mate*, shakllari mavjud. *Bruv* (brother) areal bilan bog'liq muloqotlarda, amerikaliklarda esa *dude, buddy* murojaat qilish shakllari, o'zbeklarda *aka, akajon og'ayni* ma'nosida ishlatilishi erkaklarga xos ijtimoiy yaqinlik, birdamlikni ifodalovchi murojaat shakllari hisoblanadi garchi denotiv ma'nosiga ega bo'lmasada, bu nutqiy etiketga xos me'yorlarda kommunikant o'z yuzini ijobiy saqlashga harakat qiladi.

Yuqorida keltirilgan murojaat shakllarining ikkala lingvomadaniyat vakillari muloqotidagi qo'llanish xususiyatlarini tushunib yetish, bu madaniyatlarga xos xulq-atvor, xususiyatlarning mushtarakligini, ularning farqli, o'xshash tomonlarini ochib berishda, madaniyatlararo muloqotdagi eksplisit va implisit mazmundagi murojaat qilish birliklarning asosiy xususiyatlarini tushunib yetishda, muloqotning samarali o'tishini ta'minlashda qo'l keladi. Shuningdek, har bir madaniyat o'zga madaniyat muloqotiga moslashishda stereotiplarni chetlab o'tishda ma'lum darajada muhim hisoblanadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Р.Кўнғуров, Э. Бегматов, Ё. Тожиев. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Фан,1978. – 77 б.
2. Т. Кудтаров. Нутқ маданияти асослари.– Тошкент: Ўқитувчи,1993. – 76 б.
3. Eleanor Dickey. Forms of address and terms of reference. University of Ottawa. J. Linguistics 33.Cambridge University of Press – 1997; P.256.
4. Xiaomei Yang. Address forms of English: Rules and Variations. Journal of Language Teaching and Research, Vol. 1, No. 5, pp. 743-745, September 2010.
5. Ю.Б. Юрьева. Формы Обращения в Американском национальном варианте Английского языка, Британском национальном варианте Английского языка: Социо-прагматические перспективы развития. Мир Науки, Культуры, Образования. № 3 (70) 2018 – С.543.
6. Н.В. Габдреева, А. Салим Абу Гриеканах. Этикет приветствия в Арабском языке: Лингвокультурный аспект// Концепт: философия, религия, культура, Том 8; № 2. 2024. – С.106.